

HAREZMŞAHLAR VE ETRAFINDAKİ DÜNYA

Editörler

Prof. Dr. Oktay BOZAN

Doç. Dr. Mutlu SAYLIK

Dr. Öğr. Üyesi Arafat YAZ

Dr. Öğr. Üyesi Abdusselam ERTEKİN



2024

© 2024 Ekin Yaynevi

Tüm hakları mahfuzdur. Bu kitabın tamamı ya da bir kısmı 5846 Sayılı Yasa'nın hükümlerine göre, kitabı yayinallyan yayinevinin izni olmaksızın elektronik, mekanik, fotokopi ya da herhangi bir kayıt sistemi ile çoğaltılamaz, özetenemez, yayınlanamaz, depolanamaz.

Sertifika No: 48743

ISBN: 978-625-6637-53-5

Sayfa Düzeni / Kapak Tasarımı: Vildan YAVUZ

Baskı ve Cilt:

Stüdyo Star Ajans Ltd. Şti.
Alaaddinbey Mah. 634. Sk.
NİLTİM Ayaz Plaza No: 24
Tel. (0224) 249 33 20
Sertifika No: 48334


Baskı Tarihi: Şubat 2024

EKİN Basım Yayın Dağıtım

Şehreküstü Mah. Cumhuriyet Cad.
Durak Sk. No: 2 Osmangazi / BURSA
Tel.: (0.224) 220 16 72 - 223 04 37
Fax.: (0.224) 223 41 12
e-mail: info@ekinyayinevi.com
www.ekinkitap.com



TÜRKİYE CUMHURİYETİ'NİN YÜZUNCÜ YILI



Her Yazar Kendi Makalesinden Sorumludur.

Silvan Kaymakamlığı ve Silvan Belediyesinin Katkılarıyla Basılmıştır.

SALIBCHILAR XORAZMLIKLAR XUSUSIDA

Rizayev Baxtiyor NAZARBOYEVICH*

ANNOTATSIYA

O‘rtalaslar davri muhim sahifalaridan bo‘lgan salib yurishlari tarxiy adabiyotlarda xochning yarim oyga qarshi kurashi sifatida ifodalanadi. O‘rtalas Yevropa xronikalari va arab mualliflarining ishlarida bevosita muhim jang sahnalari, to‘qnashuvlar, hukmdor va harbiy qo‘mondonlar muvaffaqiyatlari o‘scha davr ruhida, tarixnavislik tamoyillari asosida, bir tomonlama bo‘rttirib ko‘rsatiladi.

Salib yurishlari tarixiga bag‘ishlangan manbalar tizimli tahlil metodi parametrlari yordamida o‘rganilganida mualliflar nazaridan chetda qolgan va tarxiy reallik mohiyatini yanada oydinlashtirishga xizmat qiladigan jihatlar borligi ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, salib yurishlari tashkilotchilari tashabbusi bilan tatbiq etilgan, targ‘ibot-tashviqot tadbirleri aslida dastlab erishilgan muvaffaqiyatlar garovi bo‘ladi. Teologik nazariya asosida tashkil etilgan yurishlar ommaviy xarakter kasb etib, uyushqoqlik hamda yuqori darajada tashkil etilganligi bilan ajralib turadi.

Biroq, salibchilar mag‘lubiyatlari sonini ortib borishi oqibatida g‘oyaviy-psixologik ta‘sir o‘tkazishning mazmuni va mexanizmlari o‘zgaradi. Jumladan, Yevropada dastlabki salib yurishlari arafasida qilingan diniy targ‘ibotlar ta‘sirida uyg‘ongan orzu umidlar puch, xomxayoldan boshqa narsa emas ekanligining guvohi bo‘lgan salib yurishi qatnashchilarda din va targ‘ibotchilarga nisbatan salbiy munosabatning shakllanish xavfini yuzaga keltiradi. Xavfni bartaraf etish hamda urushni g‘alaba bilan yakunlash maqsadida Sharq mamlakatlarida istiqomat qilgan xristianlar hamda Xorazmshohlar haqidagi mish-mish, xabar va rivoyatlar tarqatiladi.

Ushbu maqolada Yevropa aholisi orasida xorazmshohlar xususidagi tassavur va qarashlarni shakllartirgan tarxiy shart-sharoitlar, tashviqotdan ko‘zda tutilgan maqsad hamda qo‘lga kiritilgan natijalar tahlil etiladi.

* Buxoro davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasи dotsenti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

THE CRUSADERS'S VIEW ABOUT THE KHOREZMIANS

ANNOTATION

The crusades which are one of the essential pages of the period of Middle ages in the historical literature is characterized by the fight of the Cross against the Crescent. The European chronicles of Middle ages and the treatises of the Arabic authors directly exaggeratedly indicate the main fighting arenas, struggles, rulers and victories of military commanders based on the mood of that period, principles of military chronicles, on the precondition of the unilateralism.

When the sources dedicated to the history of crusades are studied with the help of the method of systematic analysis it can be spotted that there some aspects which are serving to the clarification of the essence of the historical reality and those left out of consideration. Thus, propaganda measures implemented at the initiative of the organizers of the crusades will actually be a guarantee of the initially achieved success.

The marches organized on the basis of theological theory acquire a mass character and are distinguished by their organization and high level of organization. However, due to the increasing number of crusader defeats, the content and mechanisms of ideological and psychological influence changed. In particular, the crusade, which witnessed that the dream awakened by the influence of religious propaganda on the eve of the first crusades in Europe, was nothing more than an illusion, caused the participants to develop a negative attitude towards religion and propagandists. In order to eliminate the danger and end the war with victory, rumors, news and stories about the Christians living in Eastern countries and the Khorezmshahs were disseminated.

In the following article the analysis of the historical preconditions, the purpose from the propagations, achieved results which were forming the views and the imaginations about the khorezmshahs among the population of the Europe is considered.

KIRISH

Tarixiy adabiyotlarda o'rta asrlar davri deb ataladigan va G'arbiy Yevropa xristian davlatlari aholisi orasida diniy mutaassiblik avj olib, Rim papalari kuch-qudratga to'lgan vaqtarda yaqin Sharqdagi Quddus shahrini

musulmonlardan ozod etish, payg‘ambar Iso qabrini g‘ayridinlardan xalos etish shiori ostida musulmon davlatlariga qarshi salb yurishlari¹ uyushtirilgan. Shuningdek, bu yurishlarning asosan to‘rttasi haqida fundamental adabiyotlarda ko‘proq ma’lumotlar keltirilib, qolganlari “ko‘lamni va ahamiyati unchalik katta bo‘limgan” ligi sababli etarli darajada oolib berilmagan.

O‘z davrining buyuk davlatlaridan bo‘lgan Xorazmshohlar davlatining ham ushbu kurashlardan chetda turmaganligi etarlicha tadqiq etilmagan. Shu boisdan quyida ushbu mavzuga oid ayrim fikr–mulohazalarini keltirib o‘tmoqchimiz.

Dunyo siyosiy xaritasida XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asr boshlarida ulkan o‘zgarishlar sodir bo‘lib, musulmon olami G‘arbdan salibchilar, Sharqda esa mo‘g‘ullar hujumiga duchor bo‘lgan. Salibchilar Qoraxitoy, Nayman va Mo‘g‘ullarni musulmonlarga qarshi kurashda o‘zlariga ittifoqchi sifatida ko‘radilar, ularni xristian diniga e’tiqod qiluvchi “xudojo‘y dindoshlar²” deb ataydilar. Sharq xristianlari bilan hamkorlikka urinishlar G‘arb o‘rtasidagi xronikalari, solnomalarida o‘z aksni topgan. Jumladan, 1141 yildagi Qatvonda sulton Sanjarning Qoraxitoylar bilan bo‘lgan jangidagi mag‘lubiyati rohib qiroq Jon haqidagi afsona uchun asos bo‘lgan. Yaqin Sharqda yashayotgan xristianlarda ularga Yevropadan beg‘araz “yordam” kelishi g‘oyasi ayni shu davrdan shakllana boshlagan³. Masalan, Freyzngenlik Otto xronikasida salibchilarga monarx qiroq Jonning yordamga kelshi tufayli Sulton Sanjar mag‘lubiyatga uchratilgani talqin etiladi.

Mo‘g‘ularning Xorazmshohlar hududiga bostirib kirganligi xabari esa 1220 yili Damietta portida turgan beshinchi salb yurishi ishtirokchilariga avliyoq Jon (Muhammad Xorazmshoh) va uning o‘g‘li qiroq Davidlar Bog‘dodga hujum qilgan mazmunida etib boradi.

Dastlab, David obrazi naymanlar davlati etakchisi Kuchluk, Muhammad Xorazmshoh nomlari bilan ham bog‘langan⁴. Naymanlar etakchisi Kuchlukning turmush o‘rtog‘i xristian dinining nestorian yo‘nalishiga e’tiqod qilganligi va

¹ Заборов М.А. История крестовых походов в документах и материалах. Учеб. пособие. – М.: Высш. школа, 1977. – С.50.

² Рубрук, Гильом де. Путешествие в восточные страны // Путешествия в восточные страны Плano Карпини и Рубрука. Ред., вступ. статья и прим. Н. П. Шастиной. – М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. – С. 133.

³ Hitti P. K. History of the Arabs. London, 1940. –Р. 158.

⁴ Хилленбранд К. Крестовые походы. Взгляд с Востока: мусилманская пресспективо/пер. с англ. – СПб.: “Издательство “ДИЛЯ”, 2008. – С. 510-511.

o‘z davlatida musulmonlarga nisbatan diniy ta’qib uyuştirganligi tarixdan yaxshi ma’lum⁵. Ammo, bu siyosat davlat inqirozini tezlashtirgan.

Muhammad Xorazmshohning 1216–1217 yillarda Bog‘dod xalifasi Nosirga qarshi harbiy yurish uyuştirishi va alaviylar sektasidan bo‘lgan Aloulmulk Termiziyni xalifa deb e’lon qilishi ortidan xristian afsonalarida u avliyo Jon yoki uning o‘g‘li qirol David timsolida aks ettiriladi. Alaviylar (Shia mazhabdan ajralib chiqqan sekte bo‘lib, Muhammad bin Nusayr an–Numayr asos solganligi sababli, sektaning nomi Nusayrilari deb ham atalgan) diniy qarashlarida xristianlik ta’siri yaqqol sezilib, ushbu sektada xoch bayramlari, nasroniy cho‘qintirish, Isoni cho‘qintirish marosimlari mavjudligi, ularga Muhammad Xorazmshohning homiylik qilishi, hatto, ushbu sekte vakilini xalifa qilib ko‘tarishga muvoffaqiyatsiz uringanligi kabi omillar sabab bo‘lgan⁶.

Bu kabi afsona va tassavvurlar bir tomonidan salbchilarни Sharq tomon intilishlari va harbiy yurishlarini ma’naviy jihatdan shubhasiz ruhlantirgan, Sharqdagi dindosh birodarlar bilan bирgalikda musulmonlar ustidan g‘alaba qozonishga ishonch uyg‘otgan. Ikkinchidan salib yurishlariga ko‘ngillilarni jalb etishda afsona va rivoyatlarning tarqalishi ijobiy natija berishiga umid bog‘langan.

Yevropalik aholi orasida Plano Karpini, Gilom Rubrukning sayohat xotiralari asosida aholida Sharqda ham xristian diniga e’tiqod qiladigan qirollar mavjudligiga ishonch uyg‘ongan. Karpini xotiralarida qirol Ioanni Hindiston qiroli va mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashgan qahramon jangchi sifatida ta’riflanadi, Rubruk turk–mo‘g‘ullardan bo‘lgan qoraxitoylar oliy hukmdori unvoni Go‘rxonni Konxon deb, uning ma’nosini avliyo Kon shaklida gavdalantiradi. Uning ma’lumotlarida, Konxon o‘lgandan so‘ng, qoraxitoylar orasida yashaydigan bir Nayman o‘zini qirol deb e’lon qilgan. Nestorian mazhabidagi naymanlar uni qirol Ioan deb ataganlar. Ioanning podachi ukasi bo‘lib, uning ismi Unk (keroitlar boshlig‘i O‘ngxon nazarda tutilgan bo‘lsa kerak) bo‘lgan. U Qoraxitoy tog‘lari orasida yashab, keyinchalik mo‘g‘ullarning keroit va merkit qabilalari hukmdori bo‘lgan. Qirol Ioan vafotidan keying, Unk xon deb e’lon qilingan⁷.

⁵ Бартольд В. В. Сочинения // Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов Т –V.– М.: Наука; 1968. –С. 546.

⁶ Ал – Хасан ибн Муса ан – Навбахти. Шиитские секты. Перевод с арабского, исследование и комментарий С. М. Прозорова. – М.: Наука 1973. –С. 223.

⁷ Путешествия в Восточные страны Плано Карпини и Рубрука. Редакция, вступительная статья и примечания Н. П. Шастиной. – М.: Государственная издательство географической литературы, 1957. – С. 41.

Mo‘g‘ul istilosi davrida, ya’ni XIII asrda Chu vodiysidagi xristian–nestorianlar (nasroniyalar) aholining salmoqli qismini tashkil etgan. 1253 yilda salib yurishi uyushtirgan Fransiya qiroli Lyudovik IX (1226–1270 yy) buyrug‘iga ko‘ra, Sharqqa yo‘l olgan Gilom de Rubruk o‘z sayohati davomida Ettisuvning Qoyaliq mavzeidan uch fransuz mili shimoldagi nestorianlar qishlog‘ida bo‘lganligi, ularning cherkovlariga atrofdagi nestorianlar ibodat uchun kelishilari haqidagi fikrlar keltirilgan⁸. Tarixiy adabiyotlarda, XIV asrda Issiqko‘l bo‘ylarida ham arman xristian cherkovi faoliyat ko‘rsatganligi haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin⁹.

Mo‘g‘ullar bilan ittifoq tuzish maqsadida 1248 yili arman podshosi Getum (1226–1270 yy) ning ukasi Sembat xristianlikni targ‘ib qilish uchun Samarqand shahriga kelgan. Bu erdag‘i vaziyat xususida salib yurishlari natijasida vujudga kelgan Kipr qirolliga yozgan maktubida saratsinlar (evropaliklar tomonidan musulmonlarga nisbatan ishlatilgan atama) ilgari Sharqdagi xristianlarni qay darajada dahshat va qo‘rquvda saqlab turgan bo‘lsalar, endilikda ularning o‘zlari shu kabi dahshat va qo‘rquvdan ikki barobar ko‘proq tahlikada yashashga majbur bo‘layotganliklarindan mammunligini yashirmay yozib ma'lum qilgan¹⁰.

Salib yurishlari davom etayotgan davrida O‘rta Osiyoda bo‘lgan Marko Polo Samarcandda xristian dini mazhabidagilarning anchagina salmoqqa ega ekanligini yozib qoldirgan. Ba’zi tarixiy adabiyotlarga ko‘ra, ushbu shaharda XIII–XIV asrlarda katoliklarning avliyo Ioann cherkovi faoliyat ko‘rsatgan¹¹. Shuningdek, uning ma'lumotlarida Chig‘atoxonning xristian diniga o‘tishi va Samarcanddagi xristianlar bundan xursand bo‘lib, avliyo Ioann nomidagi cherkov qurishlari haqida yozilgan. Chig‘atoxon vafotidan keyin esa uning jiyani taxtga chiqib, xristianlar va musulmonlar o‘rtasidagi ayrim dushmanona kayfiyatdagi harakatlar kuchaygan¹².

⁸ Рубрук, Гильом де. Путешествие в восточные страны // Путешествия в восточные страны Плano Карпини и Рубрука. Ред., вступ. статья и прим. Н. П. Шастиной. – М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. – С. 133.

⁹ Бартольд В. В. Отчет о поездке Среднюю Азию с научною целью 1893–1894 гг. // Сочинения. Том IV. – М.: Издательство “Наука”. Главная редакция восточной литературы, 1966. – С. 75.

¹⁰ Бартольд В. В. Еще о христианстве в Средней Азии // Сочинения. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. Том II, часть 2. – М.: Наука, 1964. – С. 317 с.

¹¹ Религии, распространенные в Центральной Азии (URL: www.orexca.com/rus/religia.shtml).

¹² Книга Марко Поло. Серия: Путешествия. Открытия. Приключения. – Алма-Ата: Наука, 1990. -С. 70.

Mo‘g‘ullar davri nestorianlari va ularning turmush sharoiti, diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq fikrlarni 1253 yilda ulug‘ xon huzuriga sayohat qilgan Gilom de Rubruk yozib qoldirgan. U Oltin O‘rda xonligi hududida bo‘lganida Botuxon (1236–1255 yy) ning o‘g‘li Sartaqxon (1255 yilda Jo‘ji ulusini boshqargan) nestorian mazhabida ekanligidan xabar topadi. Ammo, Rubruk katolik bo‘lganligi sababli nestorian bo‘lgan Sartaqning asl xristianlik e’tiqodida ekanligiga ishonmagani¹³.

Xristianlarning Sharqdagi g‘alabalari to‘g‘risidagi xabarlar Rim papalariga Sharq va G‘arb cherkovlarini birlashtirish, musulmonlar ustidan to‘la g‘alaba qozonish uchun mo‘g‘ullar bilan ittifoq tuzish g‘oyasini beradi. Shu nuqtai–nazardan, dastlab Sharqqa 1253 yili Gilom de Rubruk yuborilgan edi. Rubruk xotiralarida sharqdagi xristianlar va xristian diniga homiylik qiluvchi yoki o‘zлari xristianlikka e’tiqod qiluvchi mo‘g‘ul xonzodalari xususidagi ko‘plab ma’lumotlar saqlanib qolingan¹⁴. Ushbu mazmundagi elchiliklar keyinchalik ko‘plab amalga oshirildi.

Mo‘g‘ullar davrida davlatning qudratli qabilalaridan biri bo‘lgan keraitlar nestorian mazhabiga e’tiqod qilib, ular xristianlikka 1009 yilda o‘tgan edilar. O‘sha yili 200 ming keraitlar nestorianlikni qabul qilib, ularning xoni o‘z nomini Margus (Mark nominining mo‘g‘ulcha talaffuzi) deb o‘zgartirgan¹⁵. Vaholanki, bunga qadar ham kerait qabilasida xristianlik tarqala boshlagan edi. Shuningdek, dastlab davlat ishlarida faoliyat yuritgan uyg‘ur amaldorlarining anchagina qismi ham xristianlar edi. 1886 yilda Ettisuv (To‘qmoq va Pishpak atroflari)dan XIII–XIV asrlarga oid xristian qabrlari topilgan bo‘lib, qabrlarda suriya tilida xristianlik matnlari bitilgan. 1902 yilda esa G‘ulja yaqinida nestorian qishlog‘ining topilishi arxeologik nuqtai–nazaridan mo‘g‘ullar istilosini davrida xristianlikka mintaqaga aholisining anchagina salmog‘i e’tiqod qiluvchi dinlaridan biri bo‘lganligini ko‘rsatadi¹⁶.

Mo‘g‘ullar tomonidan vijdon erkinligini e’lon qilinishi hamda islom dini ustunligining yo‘qqa chiqarilishi (tarixiy adabiyotlarda Chig‘atoyxon islom dinining ashshaddiy dushmani sifatida ta’riflanadi) Sharqda xristianlikning rivoj

¹³ Рубрук, Гильом де. Путешествие в восточные страны // Путешествия в восточные страны Плано Карпини и Рубрука. Ред., вступ. статья и прим. Н. П. Шастиной. – М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. – С. 89, 117.

¹⁴ Бартольд В. В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 61.

¹⁵ Груссэ Р. Империя степей. Атилла, Чингиз-хан, Тамерлан. Перевод Х. Хамраева. – Алматы, 2006. – С. 215.

¹⁶ Бартольд В. Христианство в Средней Азии (URL: www.vehi.net/brokgauz/all/111/111054.shtml).

topib borishiga imkon yaratadi. 1289 yilda Rim papasi topshirig'i bilan Bag'dodga kelgan katolik mazhabidagi Rikoldo de Monte Kroche nestorian mazhabidagilar orasida yaxshi kutib olingan¹⁷.

Chig'atoy ulusida Kepakxon (1309; 1318–1326 yy) dan so'ng qisqa muddat taxtga o'tirgan Elchigadoy (1326–1329 yy) davrida hozirgi O'zbekiston hududida katolik mazhabi targ'iboti boshlanib, ushbu mintaqaga aholisi salibchilarga yordam berishiga ishonila boshlangan. V.V.Bartold ma'lumotlariga ko'ra, missioner Foma Mangazola mintaqadagi o'ziga yuklatilgan vazifani bajarib bo'lgandan so'ng, 1329 yilda Chig'atoy ulusini tark etib, Avinonga (Rim papalarining fransuz qirollariga tutqinlik davridagi qarorgohi) qaytgan edi. Ammo, papa Ioann XXII (1316–1334 yy) uni Samarqand episkopi lavozimiga tayinlab, ortga yangi vazifalar yuklatib qaytarib yuborgan¹⁸. Darhaqiqat bu davrda katolik targ'iboti Markaziy Osiyo mintaqasida muvoffaqiyat qozonib, alohida eparxiyasiga ega bo'lgan. Shuningdek, 1329 yilda Chig'atoy ulusining markazi hisoblangan Olmaliqda Ili eparxiyasi tuziladi. Rivoyatlarga ko'a, kasal shahzodani davolagan rohiblar xon e'tiborini qozonib, bu erda cherkov qurishga va salmoqli kishilarni cho'qintirshga muvoffaq bo'ladilar. Olmaliqqa Rim papasi tomonidan Paskal de Vittoria episkop etib tayinlab yubrilganligi haqida tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan¹⁹[19. –C.208]. Ushbu voqeylek Sharqdagi xristianlarni Papa qo'l ostida birlashtirish g'oyasining amalii harakatlari bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, salib yurishlari davrida salibchilarda Sharq mamlakatlari haqidagi tassavvurlar boyib bordi. Ushbu tasavvurlarning Sharqdagi xristianlar to'g'risidagi afsonaviy qarashlardan, diniy missionerlik darajasiga o'sib chiqqanligini ko'rish mumkin. Salibchilar o'zlariga Sharqdan qirol Jon yoki David timsolida musulmonlarga qarshi harbiy "yordam" etib kelishi to'g'risidagi tasavvurlardan, Sharq va G'arbdagi xristian mazhablarini Rim papalari qo'l ostida birlashtirish rejasi hamda uni amalga oshirishda ham bir qadar muvoffaqiyatlarga erishganlar. "Xorazmliklar" esa, salbchilarga qarshi muvoffaqiyatli kurash olib borib, islom mamlakatlarini salibchilar xavfidan saqlab qolishga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar.

¹⁷ Ж.П. Тамерлан / Жан–Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – С. 208.

¹⁸ Бартольд В. В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 76.

¹⁹ Ру Ж.–П. Тамерлан / Жан–Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4-е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – С. 208.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'Yxati

1. Заборов М.А. История крестовых походов в документах и материалах. Учеб. пособие. – М.: Высш. школа, 1977. – 272 с.
2. Рубрук, Гильом де. Путешествие в восточные страны // Путешествия в восточные страны Плano Карпини и Рубрука. Ред., вступ. статья и прим. Н. П. Шастиной. – М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. – 270 с.
3. Hitti P. K. History of the Arabs. London, 1940. – p. 674.
4. Хилленбранд К. Крестовые походы. Взгляд с Востока: мусилманская преспектива/пер. с англ. – СПб.: "Издательство "ДИЛЯ", 2008. – 672 с.
5. Бартольд В. В. Сочинения // Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов Т – V.– М.: Наука; 1968. – 546 с.
6. Ал – Хасан ибн Муса ан – Навбахти. Шиитские секты. Перевод с арабского, исследование и комментарий С. М. Прозорова. – М.: Наука 1973. – 223 с.
7. Путешествия в Восточные страны Плano Карпини и Рубрука. Редакция, вступительная статья и примечания Н. П. Шастиной. – М.: Государственная издательство географической литературы, 1957. – С. 41.
8. Рубрук, Гильом де. Путешествие в восточные страны // Путешествия в восточные страны Плano Карпини и Рубрука. Ред., вступ. статья и прим. Н. П. Шастиной. – М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. – 270 с.
9. Бартольд В. В. Отчет о поездке Среднюю Азию с научною целью 1893–1894 гг. // Сочинения. Том IV. – М.: Издательство "Наука". Главная редакция восточной литературы, 1966. – С. 75.
10. Бартольд В. В. Еще о христианстве в Средней Азии // Сочинения. Работы по отдельным проблемам истории Средней Азии. Том II, часть 2. – М.: Наука, 1964. – 657 с.
11. Религии, распространенные в Центральной Азии ([URL: www.orexca.com/rus/religia.shtml](http://www.orexca.com/rus/religia.shtml)).
12. Книга Марко Поло. Серия: Путешествия. Открытия. Приключения. – Алма-Ата: Наука, 1990. – 352 с.
13. Рубрук, Гильом де. Путешествие в восточные страны // Путешествия в восточные страны Плano Карпини и Рубрука. Ред., вступ. статья и прим. Н. П. Шастиной. – М.: Государственное издательство географической литературы, 1957. – 270 с.
14. Бартольд В. В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 61.
15. Груссэ Р. Империя степей. Атилла, Чингиз–хан, Тamerлан. Перевод Х. Хамраева. – Алматы, 2006. – С. 215.
16. Бартольд В. Христианство в Средней Азии ([URL: www.vehi.net/brokgaуз/all/111/111054.shtml](http://www.vehi.net/brokgaуз/all/111/111054.shtml)).
17. Ж.П. Тамерлан / Жан–Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4–е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – С. 208.
18. Бартольд В. В. Очерк истории Семиречья // Сочинения. Том II, часть 1. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 76.
19. Ру Ж.–П. Тамерлан / Жан–Поль Ру; пер. с фр. Е. А. Соколова; послесл. В. Л. Егорова; прил. – 4–е изд. – М.: Молодая гвардия, 2007. – С. 208.

İÇİNDEKİLER

TAKDİM	v
TAKDİM	vii
TAKDİM	ix
HAREZM COĞRAFYASI VE ADININ MENŞEİ	1
<i>Mustafa KÖKSAL</i>	
ERKEN İSLAMî DÖNEMDE (93-205/712-821) HÂREZM'DE YEREL YÖNETİM	15
<i>Aykut ÖZBAYRAKTAR</i>	
ALTUNTAŞOĞLU HARUN'UN GAZNELî POLÎTİKASI VE SELÇUKLULAR	31
<i>Cihan PİYADEOĞLU</i>	
XORAZMSHOHLAR VA DASHT KO'CHMANCHI QABILALARINING TASHQI ALOQALARI TARIXI SAHIFASIDAN AYRIM MULOHAZALAR	43
<i>Yusupov Axmedjon SHONAZAROVICH</i>	
HÂREZMSÂHLAR-GÜRLULAR SİYASî MÜNASEBETLERİ	53
<i>Sena SARAÇ</i>	
XORAZMSHOH ALOVUDDIN MUHAMMADNING MUDOFAA STRATEGIYASIGA OID BA'ZI BIR MULOHAZALAR	73
<i>Umarjon XO'JAMURATOV</i>	
HARİZMŞAH ALAADDİN MUHAMMED ZAMANINDA (1200-1220) HARİZŞAHLAR DEVLETİNİ YIKIMA GÖTÜREN İÇ VE DIŞ GELİŞMELER	81
<i>Mehmet Ali ÇAKMAK</i>	
"XORAZMLIKLAR" NING SALIB YURISHLARIGA QARSHI KURASHDAGI FAOLIYATI	99
<i>Orziyev Mahmud ZAYNIYEVICH</i>	
SALIBCHILAR XORAZMLIKLAR XUSUSIDA	109
<i>Rizayev Baxtiyor NAZARBOYEVICH</i>	
MOĞOL İSTİLASINDA HÂRİZMŞAHLARIN ROLÜ	117
<i>Mevlüt GÜNLER - Asena DAĞLI</i>	
HAREZMŞAH-MOĞOL İLİŞKİLERİ VE OTRAR ÜZERİNE BAZI DÜŞÜNCELER	139
<i>Muhammet Beşir AŞAN</i>	

MOĞOLLARIN GÜRGENÇ SEFERİ	157
<i>Yasemin KAYA</i>	
TRABZON RUM DEVLETİ VE HÂREZMŞAH DEVLETİ ARASINDAKİ İLİŞKİLER	169
<i>Coşkun ERDOĞAN</i>	
“XORAZMLIKLAR” VA ULARNING MUSULMON DAVLATLARI BILAN MUNOSABATLARI	185
<i>Ergashev Jahongir YUNUS UGLI</i>	
EYYÜBİLER İLE HÂREZMLİLER ARASINDAKİ İTTİFAKLAR VE İŞBİRLİKLERİ	195
<i>Yunus Emre AYDIN</i>	
SULTON JALOLIDDIN XORAZMSHOHNING HINDISTON HUDUDLARIDAGI FAOLIYATI XUSUSIDA	215
<i>Latipov Jasur LAZIZ O'G'L - Shodiyeva Shahlo SOL/YEVNA</i>	
İSMAİLİLER VE HARİZMŞAHALAR ARASINDA DİPLOMATİK GÖRÜŞMELER	227
<i>Ayşe Atıcı ARAYANCAN</i>	
YASSIÇİMEN SAVAŞI SONRASI SULTAN I. ALÂEDDÎN KEYKUBÂD'IN HAREZMLİ POLİTİKASI	245
<i>Mahmut DEMİR</i>	245
SİBT İBNÜ'L-CEVZÎ'NİN MİRÂTÜ'Z-ZAMÂN FÎ TÂRÎHÎ'L-A'YÂN ADLI ESERİNDE HAREZMŞAHALAR	267
<i>Arafat YAZ</i>	
CELALEDDİN MENGÜBERDİ'NİN AKRABASI MOĞOLLARI YENEN HARZEMŞAHLI BİR MEMLÜK SULTANI KUTUZ'UN KÖKENİ HAKKINDA BAZI TESPİTLER.....	309
<i>Altan ÇETİN</i>	
KONGRATLI SOFİ HANEDANININ HAREZM HÂKİMİYETİ VE TİMURLULAR İLE MÜCADELESİ	329
<i>Ensar MACİT - Aslıhan AYDIN</i>	
YAQIN SHARQDA “XORAZMLIKLAR”NING SIYOSIY KUCH SIFATIDA TUGATILISHI VA TARIXIY TAQDIRI XUSUSIDA.....	345
<i>Majidov Jo'rabet JALILOVICH</i>	
RUSLARIN TÜRKİSTAN'I İŞGALİ DÖNEMİNDE OSMANLI DEVLETİ-BUHARA EMİRLİĞİ İLİŞKİLERİ	355
<i>Abdusselam ERTEKİN - Abdullah CENGİZ</i>	
SULTAN II. ABDÜLHAMİD DÖNEMİ TÜRKİSTAN POLİTİKALARINDA ÖZBEK HACILAR VE MUHACİRLER	385
<i>Ali Fuat ÖRENÇ</i>	